



## “SHAYTANAT” ASARIDAGI ARGO VA JARGONLARNING SEMATIK TAHLILI

**Rasulberdiyeva Zulfizar Doniyor qizi**

O‘zMU O‘zbek filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Tohir Malikning “Shaytanat” asarida qo‘llanilgan argo va jargon birliklarining semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda ishlatilgan ijtimoiy cheklangan leksik birliklar o‘zbek jinoyat olamining lingvokulturaviy tabiatini ochib berishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Argo va jargonlar personajlarning ijtimoiy mavqei, psixologik holati va guruhga mansubligini ifodalovchi muhim belgi sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** argo, jargon, semantika, “Shaytanat”, jinoyat olami, lingvistik tahlil, ijtimoiy leksika.

**Аннотация.** В статье анализируются семантические особенности арго и жаргонизмов, использованных в произведении Тохира Малика «Шайтанат». Социально ограниченные лексические единицы, примененные в произведении, выступают важным инструментом в раскрытии лингвокультурной природы узбекского криминального мира. Арго и жаргонизмы служат значимыми маркерами, выражающими социальный статус, психологическое состояние и групповую принадлежность персонажей.

**Ключевые слова:** арго, жаргон, семантика, “Шайтанат”, криминальный мир, лингвистический анализ, социальная лексика.

**Annotation.** The article analyzes the semantic characteristics of argot and jargon used in Tohir Malik’s work “Shaytanat”. The socially restricted lexical units employed in the work serve as a crucial tool in revealing the linguocultural nature of the Uzbek criminal world. Argot and jargon act as significant markers in expressing the social status, psychological state, and group affiliation of the characters.

**Keywords:** argot, jargon, semantics, “Shaytanat”, criminal world, linguistic analysis, social lexicon.

Adabiyot til orqali inson va jamiyatni ifoda etadi. Ayniqsa, badiiy matnda ijtimoiy cheklangan leksik birliklar – argo va jargonlar – muayyan ijtimoiy qatlamning tafakkuri, turmush tarzini namoyon etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tohir



Malikning “Shaytanat” asarida o‘zbek adabiyotida jinoyat olamini chuqur yoritgan asar bo‘lib, unda ko‘plab argo va jargonlar faol qo‘llaniladi.

Argo – muayyan ijtimoiy guruh vakillari orasida ishlatiladigan, odatiy adabiy til me‘yoridan chetga chiqqan leksik birliklardir. Jargon esa ko‘proq kasbiy, professional yoki ma‘lum bir guruhga xos bo‘lgan maxsus leksikadir. Farqi shundaki, argo ko‘proq yashirin ma‘no anglatish va cheklanmagan til hodisasi bo‘lsa, jargon ma‘lum bir guruh doirasida ishlatiladigan atamalardir.

Tohir Malik jinoyat olami vakillarining tili orqali ularning ichki dunyosi, ijtimoiy pozitsiyasi va psixologik holatini tasvirlaydi. Quyidagi birliklar argo va jargon sifatida e‘tiborni tortadi:

“Xalq otasi” jumla asarda Xolidiy ismli personajga nisbatan kinoyali tarzda ishlatilgan. Bu jumla asosan xalqqa yaqin bo‘lgan rahbarga ishlatilsa-da, asarda u Xolidiyning o‘zini maqtashga moyilligi va yolg‘on mavqeyini fosh qilishda qo‘llanilgan. Jargon so‘z sifatida bu ijtimoiy guruhlarning yolg‘onchi va ikkiyuzlamachi ekani ochiqdan. “Shilimshiq” so‘zi kontekstdan tashqarida yopishqoq ma‘nosini beradi. Bu so‘z asarda qo‘llanilgan bo‘lib, bir jinoyat guruh a‘zosining laqabi sifatida ishlatilgan. Kontekstda quyidagicha qo‘llanilgan: Asadbek Kesakpolvonga: “Haydar, Shilimshiq o‘ldirilgan joy esingdami?”<sup>1</sup> deydi. Bu yerda “Shilimshiq” ma‘lum bir shaxsning laqabi sifatida ishlatilgan va jinoyat olamidagi qo‘pol jargonni aks ettiradi. “Jo‘raboshi” so‘zi bir guruh yigitlar yokida do‘stlar ichida yetakchi inson tushuniladi. Bu so‘z ko‘pincha yoshlar guruhida yoki jinoyat olamida qo‘llaniladigan jargondir. Asarda: “Akasi qaysi gapi jo‘raboshiga yoqmadi – u eslolmadi.” Bu jargon yoshlar subkulturasini yoki guruhlarning ichidagi norasmiy ierarxiyani ifodalovchi so‘z bo‘lib, rasmiy tilda “jo‘raboshi” so‘zi o‘rniga “rahbar” so‘zi ishlatilgan bo‘lardi. “Ilonvachcha” so‘zi haqoratli jargon hisoblanadi. Asarda Asadbekning dadasi yangi yil kechasi qamoqqa olish paytida past bo‘yli inson Asadbekka: “Jim bo‘l, ilonvachcha!” deydi. Bu so‘z rasmiy tilda ishlatilmaydi va asosan qo‘pol, norasmiy muhitda va zo‘ravonlik holatlarda qo‘llaniladi. “Chatoq” argoni muammo, janjal yokida noqulay holatni bildiradi. Deputat Asadbekka: “Aka, ahvol chatoq, men bilan Farg‘onaga borib kela olmaysizmi?”<sup>2</sup> Bu yerda “chatoq” so‘zi muommoning jiddiy ekanligini anglatadi. “Chumo” so‘zi o‘zbek tilida kamsituvchi, past darajadagi odamni

<sup>1</sup> Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001

<sup>2</sup> Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001



tasvirlash uchun ishlatiladi. Asosan yoshlar orasida qo‘pol haqorat sifatida qo‘llaniladi. Asarda bu so‘z quyidagicha ifodalanadi: “G‘ilay Shomilning yonidagi bola Hosilga qarab: He, chumo, ishing bormi?” deya so‘raydi. Bu so‘z Hosilning mahallaga kelgan “kelgindi” sifatidagi past mavqeini ifodalagan. “Bratishka” so‘zi yoshlar o‘rtasida ishlatiladigan jargon. Rus tilida olingan bo‘lib, “aka” yoki “do‘st” ma‘nosini bildiradi. Yoshlar guruhida yoki jinoyat dunyosida samimiy, lekin biroz qo‘pol murojaat sanaladi. “G‘ilay Shomil Hosilga: Ke, bratishka, o‘tir. Kallang bor ekan, sen ham zo‘r bo‘lib ketasan”. Kontekstda bu so‘z Shomilning Hosilni o‘z jamoasiga qabul qilishi va unga yaqinroq munosabatda bo‘lganini ko‘rsatadi. “Paxan” jargon. Bu so‘z boy, nufuzli yoki savdogar odamni tasvirlash uchun ishlatiladi, lekin ko‘pincha kinoyali yoki masxara ohangida qo‘llaniladi. Jinoyat guruhlari o‘rtasida keng tarqalgan. Shomil Hosilga: “Bratishka, hozir paxaningning og‘aynisinikiga borasan” deydi. <sup>3</sup> Bu so‘z Hasan akani boy va o‘g‘rilik nishoni sifatida ko‘rsatadi. Rasmiy tilda “boy” yoki “savdogar” so‘zlari ishlatiladi, lekin “paxaning” jinoyat muhitida kinoyali jargon sifatida ishlatiladi. “Lalaygan” so‘zi tajribasiz, yosh yoki jiddiy ishga yaramaydigan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ko‘pincha masxara yoki kamsitish maqsadida qo‘llaniladi. Hosilboyvachcha Shomilga: “Kesatyapsizmi, lalayganini nima qilasiz?” deydi. Bu so‘z yosh yigitning tajribasizligini masxara qilish uchun ishlatilgan. Rasmiy tilda “tajribasiz” yoki “yosh” so‘zlari ishlatilardi, lekin “lalaygan” norasmiy muhitda kamsituvchi jargon sifatida qo‘llaniladi. “Xumkalla” (jargon, laqab) “Xumkalla” so‘zi katta boshli, ammo kichik gavdali shaxsni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu norasmiy laqab bo‘lib, jinoyat muhitida birovning tashqi ko‘rinishiga qarab qo‘yilgan kinoyali nom sifatida qo‘llaniladi. Asarda Mirodil ismli yigit “Xumkalla” deb ataladi: “Dunyodagi bir qancha noo‘rinliklarni o‘zida mujassam etgan bu yigit Chuvrindining maxsus topshiriqlarini bajarar edi”<sup>4</sup>. Bu so‘z uning nomutanosib gavdasi (katta bosh va kichik bo‘y) tufayli qo‘yilgan. Rasmiy tilda bunday laqab ishlatilmaydi. Jinoyat muhitida shaxsning tashqi ko‘rinishiga qarab masxara yoki tasniflash maqsadida qo‘llaniladi. Bu laqab Mirodilning g‘ayrioddiy ko‘rinishi va guruhdagi o‘ziga xos rolini ta’kidlaydi, uning zo‘ravon tabiatini ochib beradi. “G‘ilay” (jargon) “G‘ilay” so‘zi mahallada nufuzli, zo‘ravon yoki guruh yetakchisini tasvirlash uchun ishlatiladi. Yoshlar subkulturasida va jinoyat muhitida keng tarqalgan. Tabib Shomil haqida:

<sup>3</sup> Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001

<sup>4</sup> Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001





“Gavdali bir g‘ilay odam... Kelasolib tomog‘imdan bo‘g‘di”<sup>5</sup> deydi. Bu so‘z Shomilning zo‘ravon va tahdidkor shaxs ekanligini ko‘rsatadi. Rasmiy tilda “yetakchi” yoki “nufuzli shaxs” so‘zlari ishlatiladi, lekin “g‘ilay” norasmiy muhitda qo‘pol, hurmat yoki qo‘rquv ohangida ishlatiladi. Bu so‘z jinoyat olamidagi ierarxiyani va Shomil kabi shaxslarning dominant xususiyatlarini ochib beradi.

Tohir Malikning “Shaytanat” asarida argo va jargonlar o‘zining oddiy leksik vazifasidan tashqari, semantik va badiiy yuklama bilan boyitilgan. Bu birliklar personajlar tabiatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Jinoyat olamining o‘ziga xos til tizimi, asarda real voqelikni ifodalashda muhim komponent sifatida xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Xudoyberganova , Til va jamiyat: ijtimoiy lingvistika masalalari. Toshkent:Fan, 2010.
2. H.Jomolxonov, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent – Talqin – 2005
3. Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001
4. R.Sayfullayeva, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent., 2010
5. Z.Taxirov, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi, Toshkent., 2020
6. Z. Xolmonova, Tilshunoslikka kirish, Toshkent., 2007
8. Sh. Rahmatullayev, Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 2010

Research Science and  
Innovation House

<sup>5</sup> Tohir Malik, Shaytanat, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent, 2001

